INKLYUIZV TA'LIM – HAMMA BOLALAR UCHUN TENG IMKONIYATLAR

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi p.f.f.d; CHDPU, Chirchiq, O'zbekiston
+998931055485 xusnuddinovazulayxo@gmail.com
Bo'riyeva Sevara Gulboy qizi Masharipova Nazira Shuhrat qizi
Farxodova Sabrina Rashid qizi Shokirxonova Sarvinoz Muzaffarxon qizi
Talaba, CHDPU, Pedagogika fakulteti, Chirchiq, O'zbekiston
boriyevasevara1@gmail.com
Masharipovanazira06@gmail.com
sabrinafarxodova56@gmail.com
muzaffarxonovna005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola inklyuziv ta'limning ahamiyati, uning jamiyatdagi roli va O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni ko'rib chiqadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi har bir bolaning ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash va jamiyatda tenglik, adolat yaratishdir. O'zbekiston Prezidentining ta'lim sohasidagi yondashuvlari va ta'lim mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan islohotlar orqali inklyuziv ta'limni joriy etishning samaralari tahlil qilingan. Maqolada pedagoglar, innovatsion texnologiyalar va jamiyatdagi inklyuziv ta'limning o'rni haqida ham muhim fikrlar taqdim etilgan. Bu maqola inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, tenglik, adolat, imkoniyatlari cheklangan bolalar, ta'lim tizimi, pedagoglar, innovatsion texnologiyalar, integratsiya, ta'lim islohotlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение инклюзивного образования, его роль в обществе и реформы, реализуемые в системе образования Узбекистана. Основная цель инклюзивного образования — обеспечение каждому ребенку возможности получения образования с учетом его индивидуальных потребностей, а также создание равенства и социальной справедливости в обществе. Проанализированы подходы Президента Узбекистана в сфере образования и результаты внедрения инклюзивного образования на основе реформ, проводимых специалистами в области образования. В статье также представлены важные идеи о роли педагогов, инновационных технологий и значении инклюзивного образования в обществе. Данная работа содержит рекомендации, направленные на развитие инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, равенство, справедливость, дети с ограниченными возможностями, система образования, педагоги, инновационные технологии, интеграция, образовательные реформы.

Abstract: This article discusses the importance of inclusive education, its role in society, and the reforms being implemented in the education system of Uzbekistan. The main goal of inclusive education is to provide every child with educational opportunities tailored to their needs and to create equality and justice in society. Through the approaches of the President of Uzbekistan and reforms led by education specialists, the article analyzes the outcomes of implementing inclusive education. It also provides valuable insights into the role of teachers, innovative

technologies, and the place of inclusive education in society. The article includes recommendations aimed at further developing inclusive education.

Keywords: Inclusive education, equality, justice, children with disabilities, education system, teachers, innovative technologies, integration, education reforms.

Kirish

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham ta’lim sohasida turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sohasidagi bu islohotlarning asosini “Ta’lim tog‘risidagi qonun”tashkil etadi. E’tiborga molik jihati shundaki ushbu qonunning 20-moddasi aynan inklyuziv ta’limga qaratilganligidir. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, jumladan, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim tizimiga integratsiya qilishni nazarda tutadigan yondashuvdir. U har bir bolaga uning ehtiyojlariga qarab ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish, uni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashga yordam berishni maqsad qiladi[1].

Adabiyot tahlili va metodologiyasi

Inklyuziv ta’limning asosiy vazifasi – har bir bolaning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalangan holda, unga eng yaxshi ta’limni taqdim etishdir. Inklyuziv ta’lim jamiyatda barcha bolalarga teng imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yildagi ma’ruzalarida ta’lim tizimida inklyuzivlikni joriy etishning ahamiyati haqida alohida ta’kidlangan edi. Bu, ayniqsa, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun o‘quv muassasalarida moslashuvchan sharoitlar yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyilga asoslanib, inklyuziv ta’lim tizimi bolaning ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga, uning o‘zini erkin tutishi va jismoniy, psixologik rivojlanishiga imkon yaratadi . Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi degan savolga shunday javob berish mumkin:

- O‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etib,qobiliyatlarini yanada ko‘proq namoyon qilish;
- Mustaqil harakatlanish;
- Birgalikda va hamkorlikda ishlash imkoniyatini;
- Dunyoqarashi kengaydi;
- Atrofdagi muhitga munosabati o‘zgaradi.

O‘zidan qoniqmaslik hissi bartaraf etiladi va eng muhim jihati anomal bolalar ta’lim oladi. Inkyuziv ta’lim sog‘lom bolalar hayotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ular o‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlarining ehtiyojlarini his qiladilar, ularda atrofdagilarga nisbatan g‘amxo‘rlik hissi oshadi, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi, yordamga muhtoj insonlarga e’tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadi.Alohida ehtiyojli bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘z qobiliyat darajasida faoliyat ko‘rsatish, ta’lim olishi, kasb-xunar o‘rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqliligini, o‘z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Inklyuziv ta’limning eng asosiy printsipi – bu tenglik va adolat. Har bir bola o‘zining ehtiyojlariga mos ta’lim olish huquqiga ega[2]. O‘zbekistonning taniqli ta’lim

[1] Mirziyoyev Sh. “O‘zbekistonning ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha yangi yondashuvlar”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ma’ruzasi 2020.

[2] Xidirova, M., & Bahromov, A. (2024). O ‘QITUVCHINING KASBIY DEFORMATSIYASI. Modern Science and Research, 3(5), 825-828.

mutaxassisi, professor Shuhrat Abdullayevning “Ta’limda inklyuzivlik” maqolasida ta’kidlanishicha, inklyuziv ta’lim jamiyatda barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, har bir bola o‘z imkoniyatlariga qarab ta’lim olishi, jamiyatga moslashishi uchun sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Natijalar

Ta’lim jarayonining asosiy markaziy figuralaridan biri sifatida pedagog shaxsi shakllanishi hozirgi zamon pedagogika fanining dolzarb mavzularidan biridir . Ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy qilishda o‘qituvchilar, pedagoglar va psixologlar o‘rtasida hamkorlik muhimdir. Chunki ular har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ta’limni samarali tarzda tashkil etishi kerak. Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- Pedagogik bilim va malaka
- Individual yondashuv
- Empatiya va psixologik ko‘nikmalar
- Moslashuvchanlik va kreativlik
- Maxsus yordam ko‘rsatish va resurslardan foydalanish
- Jamoaviy ishlash va hamkorlik
- Keng qamrovli ta’lim va o‘z-o‘zini rivojlantirish
- Ijtimoiy va madaniy bilimsizlikni kamaytirish

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun pedagoglar maxsus treninglardan o‘tishi, inkluziv yondashuvni o‘z darslarida qo‘llashga tayyor bo‘lishi lozim.

Bu, o‘qituvchidan nafaqat umumiy ta’lim metodologiyasini, balki maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo‘yicha metodlarni bilishni talab qiladi. O‘qituvchi har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu bolalarning turli darajadagi qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos darslar tayyorlashni anglatadi. O‘qituvchi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini (masalan, ko‘zi ojiz, eshitish qobiliyati past, ruhiy rivojlanishdagi o‘zgarishlar) tushunib, har biriga individual o‘quv reja va strategiyalar ishlab chiqishi kerak. Inklyuziv ta’limda o‘qituvchidan yuqori darajada empatiya va bolalar bilan psixologik aloqalar o‘rnatish qobiliyati talab qilinadi. O‘qituvchi bolalar bilan ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatda bo‘lishi kerak, chunki imkoniyatlari cheklangan bolalar o‘zlarini ko‘pincha jamiyatdan ajratilgan yoki orqada qolgan his qilishlari mumkin. O‘qituvchining doimiy psixologik qo‘llab-quvvatlashi va ijobiy munosabati, bolaning o‘qishdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi har bir bolaning ehtiyojiga qarab, o‘z metodlarini va dars jarayonini moslashtirishi zarur.

Muhokama

O‘qituvchi kreativ yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun, o‘qituvchi o‘quv materiallarini, texnik vositalar va metodlarni birlashtirib, darsni bolalar uchun qiziqarli va samarali qilishda moslashuvchan bo‘lishi zarur. O‘qituvchi maxsus texnologiyalardan (masalan, surdo-pedagogik vositalar, brail yozuvi, kompyuter dasturlari) foydalangan holda, ta’limni qulay va samarali qilishga harakat qilishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchi psixologlar, logopediya mutaxassislari va boshqa pedagogik xizmatlar bilan hamkorlik qilishi zarur. Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi doimiy ravishda o‘z bilimini oshirishga, yangi yondashuvlar va metodlarni o‘rganishga intilishi kerak. Ta’lim tizimida yangilanishlar bo‘lishi bilan, o‘qituvchi yangi bilim va ko‘nikmalarni olishga va o‘z malakasini doimiy ravishda rivojlantirishga tayyor bo‘lishi kerak. Kompyuter texnologiyalari, maxsus o‘quv dasturlari va onlayn ta’lim

imkoniyatlari, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ta'limni yanada qulay va samarali qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar o'qituvchilarga ham individual yondashuvni amalga oshirishda ko'maklashadi. Masalan, Toshkent shahridagi maktablardan birida maxsus dastur asosida surdopedagoglar yordamida ta'lim olishayotgan bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar bolalarning ta'lim olish jarayonini osonlashtiradi va ular uchun qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham juda muhimdir. Imkoniyatlari cheklangan bolalarning o'qish va jamiyatga moslashish jarayonida ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi uchun inklyuziv ta'lim sharoitlari zarur. Bu bolalar boshqa bolalar bilan birga o'qib, ular bilan ijtimoiy aloqalar o'rnatib, jamiyatda muvaffaqiyatli qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Respublikamizda inklyuziv ta'limning rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv yordamida bolalarga teng imkoniyatlar yaratilib, jamiyatdagi barcha a'zolarga hurmat va qadriyatlar asosida munosabatda bo'lishga rag'batlantiriladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim faqat alohida ehtiyojli bolalar uchun emas, balki barcha o'quvchilar uchun foydalidir. Chunki u bolalarda bag'rikenglik, hurmat, hamkorlik va mehr-oqibat kabi muhim insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Natijada jamiyatda tenglik va adolat tamoyillari mustahkamlanadi.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun pedagoglarning malakasi, zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion texnologiyalar hamda ota-onalar va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Shu orqali har bir bola o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim har bir bolaning o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim olish huquqini ta'minlash orqali jamiyatni yanada barqaror va adolatli qilishga yordam beradi. O'zbekistonning ta'lim tizimida ushbu tamoyilni rivojlantirish va joriy qilish uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Pedagoglar, psixologlar va texnologiyalarni qo'llash orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali biz har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratishga erishishimiz mumkin.

Adabiytlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekistonning ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha yangi yondashuvlar". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzasi 2020.
2. Abdullayev Sh. Ta'limda inklyuzivlik. Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti 2018.
3. Muminova L.R., Shomahmudova R.Sh., Axmedova Z.M. "Inklyuziv ta'lim" o'quv qo'llanma. Toshkent – 2019
4. Muzaffarova X.N., Tangirova D. "Inklyuzv ta'lim" fani bo`yicha o`quv metodik qo`llanma / Jizzax davlat pedagogika instituti/. 2011 y.
5. Ra'no, D. S., Khidirova, M. Q., Nosirova, D. S., & Jonzoqova, S. A. COLLABORATIVE LEARNING TECHNOLOGY BASED ON THE CONTENT OF THE FORMATION OF STRATEGIC COMPETENCE.
6. Xidirova, M., & Bahromov, A. (2024). O 'QITUVCHINING KASBIY DEFORMATSIYASI. Modern Science and Research, 3(5), 825-828.
7. Xudoyberdiyev N. Jamiyatda inklyuziv ta'limning o'rni. Xorazm pedagogika instituti maqolasi 2019 y.

8. Жамолдинова, О. Р. (2010). Проблемы формирования культуры здорового образа жизни в семье. Молодой ученый, (7), 264-266.
9. Shagazatova, B. K., & Alisherovna, K. N. (2023). Changes in the Incretin Levels After Gastric Bypass. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 4(2), 446-450.

10. References:

11. Shavkat Mirziyoyev “New Approaches to Reforming the Education System of Uzbekistan.” Speech of the President of the Republic of Uzbekistan, 2020.
12. Sh. Abdullayev Inclusive Education. Tashkent: Publishing House of Uzbekistan State Pedagogical University, 2018.
13. L.R. Muminova, R.Sh. Shomahmudova, Z.M. Axmedova Inclusive Education. учебное пособие (Textbook). Tashkent, 2019.
14. X.N. Muzaffarova, D. Tangirova Methodological Guide on the Subject “Inclusive Education”. Jizzakh State Pedagogical Institute, 2011.
15. D.S. Ra’no, M.Q. Khidirova, D.S. Nosirova, S.A. Jonzoqova Collaborative Learning Technology Based on the Content of the Formation of Strategic Competence.
16. M. Khidirova, A. Bahromov (2024) “Professional Deformation of the Teacher.” Modern Science and Research, 3(5), 825–828.
17. N. Xudoyberdiyev “The Role of Inclusive Education in Society.” Article, Khorezm Pedagogical Institute, 2019.
18. O.R. Jamoldinova (2010) “Problems of Forming a Healthy Lifestyle Culture in the Family.” Young Scientist, (7), 264–266.
19. B.K. Shagazatova, N. Alisherovna K. (2023) “Changes in Incretin Levels After Gastric Bypass.” Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 4(2), 446–450.